

**O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.Fil/Ped.27.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI

CHORIYEVA SHAXNOZA SHUXRATOVNA

**INGLIZ “YO‘QOTILGAN AVLOD” ADABIYOTIDA AYOLLAR
OBRAZINING BADIY O‘ZIGA XOSLIGI
(RICHARD OLDINGTON VA VERA BRITTEN ASARLARI MISOLIDA)**

10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi
AVTOREFERATI**

TOSHKENT – 2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Contents of dissertation abstract of Doctor of Philosophy (PhD)

Choriyeva Shaxnoza Shuxratovna

Ingliz “Yo‘qotilgan avlod” adabiyotida ayollar
obrazining badiiy o‘ziga xosligi

(Richard Oldington va Vera Britten asarlari misolida)..... 3

Чориева Шахноза Шухратовна

Художественное своеобразие женских образов в
английской литературе «потерянного поколения»

(на материале произведений Ричарда Олдингтона и Веры Бриттен)..... 27

Shakhnoza Shukhratovna Chorieva

The Artistic Originality of Women Images in English
Literature of the “Lost Generation”

(on the example of Richard Aldington and Vera Brittain’s works)..... 53

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works..... 57

**O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.Fil/Ped.27.01 RAQAMLI ILMY KENGASH**

O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI

CHORIYEVA SHAXNOZA SHUXRATOVNA

**INGLIZ “YO‘QOTILGAN AVLOD” ADABIYOTIDA AYOLLAR
OBRAZINING BADIY O‘ZIGA XOSLIGI
(RICHARD OLDINGTON VA VERA BRITTEN ASARLARI MISOLIDA)**

10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi
AVTOREFERATI**

TOSHKENT – 2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2019.3.PhD/Fil991 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya O'zbekiston davlat jahon tillari universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus va ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.uzswlu.uz) va «ZiyoNet» Axborot ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Muratova Elmira Denisovna

filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Rasmiy opponentlar:

Sadiqov Zohid Yaqubjanovich

filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Niyazov Ravshan Turakulovich

filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Yetakchi tashkilot:

Buxoro davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti huzuridagi DSc.03/30.12.2019.Fil/Ped.27.01 raqamli Ilmiy kengashning 2023 yil «15» sentabr soat 13⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100138, Toshkent sh., Kichik halqa yo'li ko'chasi, 21-uy. Tel.: (71) 230-12-91; faks: (99871) 230-12-92; e-mail: uzswlu_info@mail.ru)

Dissertatsiya bilan O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (23 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100138, Toshkent sh., Kichik halqa yo'li ko'chasi, 21-uy. Tel.: (71) 230-12-91; faks: (99871) 230-12-92.

Dissertatsiya avtoreferati 2023 yil «31» avgust kuni tarqatildi.

(2023 yil «31» avgust dagi 23 raqamli reyestr bayonnomasi)



G.X. Bakiyeva

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, filol.f.d., professor

X.B. Samigova

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy kotibi, filol.f.d., dotsent

J.A. Yakubov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, filol.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. XX asrning 20-yillari G'arbiy Yevropa (Amerika) adabiyotida vujudga kelgan "yo'qotilgan avlod" ("Lost Generation") adabiy yo'nalishiga mansub ijodkorlarning o'ziga xos uslubi, ular asarlarida aks etgan urush mavzusi; ijtimoiy, siyosiy, mafkuraviy, ma'naviy masala va g'oyalar talqini borasida ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Birinchi jahon urushidan keyin paydo bo'lgan mazkur yo'nalishni adiblarning urushda qatnashgani yoki qatnashmaganligiga qarab tasniflash, asarlarda aks etgan urush davri murakkabliklarini teran mushohada qilish barobarida qahramon ruhiyati, jumladan, ayol siymosi, uning tiynatida kechgan evrilishlarning butun nozikliklari ifoda topgan tasvirlarni "urush va ayol" kontekstida o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. "Yo'qotilgan avlod" namoyandalari asarlariga xos muhim jihatlar – asarlarining arxitektonikasi, ularda tasvirga olingan voqealarning keskin rivoji va yopiq yechimi, mualliflarning obraz yaratish mahorati, asarlarda ilgari surilgan badiiy-falsafiy g'oyalar, o'sha tahlikali davrdagi ayollarning achchiq qismati, ularning matonati va saboti tasvirlangan epik turga mansub asarlarni tahlil qilish zamonaviy adabiyotshunoslikning dolzarb vazifalari sirasiga kiradi. Gender munosabatlarning adabiyotshunoslikdagi tadqiqi xususidagi ilmiy-nazariy qarashlar, ularga munosabat va tarixiy jarayonning badiiy ifodasini tadqiq etish o'ziga xos yondashuvni taqozo etadi.

Dunyo adabiyotshunosligida urush tufayli jamiyatda ayollar maqomining o'zgarishi – jang maydonlarida ular bajarishi lozim bo'lgan majburiyatlar, ularning tinchlikni targ'ib etuvchi harakatlardagi rahnamoligi, namoyishlarda inqilobiy ruhdagi nutqlar bilan ishtirok etishi va urushning ayollar hayotiga bevosita hamda bilvosita salbiy ta'siri kabi masalalar "Yo'qotilgan avlod" adabiyoti tamoyillari asosida o'rganilmoqda. Romaniy tafakkur va uslubiy o'ziga xoslik, turli makon va zamonda sodir bo'lgan voqealar tasviri, sujet va kompozitsion yaxlitlik; ayol, jamiyat va borliq triadasi singari muammolarni tadqiq etish, o'z navbatida, "yo'qotilgan avlod" adabiyoti vakillari – Richard Oldington va Vera Britten ijodi haqida dunyo ilmiy jamoatchiligini xabardor etish zaruratini yuzaga keltiradi.

O'zbek adabiyotshunosligida badiiy asarni tahlil qilish mezonlarini belgilash, ijodkorning poetik mahoratini yoritib berish uchun bir qancha turli tadqiqot metodlariga asoslangan yondashuvlarni kuzatish mumkin. Jumladan, qat'iyatli va shijoatli ayol obrazini yaratishda ijodiy individuallik, adabiy ta'sir, jahon adabiyoti namunalari bilan o'zbek tilidagi badiiy asarlarning qiyosiy tipologiyasi, universalligi va o'ziga xosligi kabi masalalarni atroflicha tadqiq etish zarurati mavjud. Zero, mamlakatimiz Prezidenti ta'kidlaganlaridek, "Zamonaviy bilim va iste'dodga, yetakchilik qobiliyatiga ega, el-yurtimiz uchun fidoyi xotin-qizlarimiz – xalqimiz, millatimizning oltin fondi, desak, hech qanday mubolag'a bo'lmaydi. Biz yaxshi tushunamiz – xotin-qizlarning huquq va manfaatlari ta'minlangan jamiyatda, albatta, tinchlik, adolat, erkinlik va farovonlik bo'ladi. Ayol baxtli

bo'lsa, oila va jamiyat ham, albatta, baxtli bo'ladi"¹. Badiiy adabiyotda ayol obrazi muqaddaslik, g'urur, go'zallik timsoli sifatida gavdalantirilgan. "Yo'qotilgan avlod" vakillari asarlari misolida ijtimoiy haq-huquqlarini anglab yetgan, o'z qadr-qimmatini hurmat qiladigan ayollarning mikroxtopini tadqiq etish mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-son, 2019-yil 8-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son Farmonlari, 2017-yil 17-fevraldagi "Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2789-son qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 18-maydagi "Jahon adabiyotining eng sara namunalarini o'zbek tiliga hamda o'zbek adabiyoti durdonalarini chet tillarga tarjima qilish va nashr etish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 376-son qarori, hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarning amaldagi ijrosini ta'minlashda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining: "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Jahon adabiyotshunosligida "Yo'qotilgan avlod" vakillari asarlaridagi ayol obrazining badiiy o'ziga xosligi, ijodkorlarning o'sha davr ijtimoiy manzarasi muhim belgilarini umumlashtirish, sintezlash va individuallashtirish san'ati, ayol ruhiyatidagi evrilishlarni tahlil qilishga bag'ishlangan tadqiqotlar amalga oshirilgan. Jumladan, "Yo'qotilgan adabiyot" tarixi, tadrijiy taraqqiyot tamoyillari bo'yicha S.Palchikova, K.J. Poulsen, K.L. Shelton, J.R. Veyre²; Richard Oldington asarlari xususida M.A. Greyvs, S.Kitredj, N.T. Geyts, R.E. Galloey, A.Kersho, R.Y. Smit, O. L. Gil, A.V. Sinyaa, S.A. Fadeeva; G.E.Ionkis, M.I.Urnov³ ilmiy izlanishlar olib

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Xalqaro xotin-qizlar kuniga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi// 06.03.2021 https://uza.uz/uz/posts/ozbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyoevning-halqaro-xotin-qizlar-kuniga-bagishlangan-tantanali-marosimdagi-nutqi_247044

² Palcikova S. Lost Generations in American Literature. Tomas Bata University in Zlin, 2010. – P. 40.; Kevin J. Poulsen. The Lost Generation over there and back here: John Dos Passos's "Manhattan Transfer", Ernest Hemingway's "The Sun Also Rises" and William Faulkner's "Sartoris". – Logan: Utah State University, 1996. – P. 83.; Shelton C.L.. The Experience of war: British War novels, 1919 -1930. PhD Diss., – Middle Tennessee State University, 1989. – P. 264.; Weare J.R. Competing Narratives: British Memoirs and Fictions of the First World War. PhD Diss., – Stanford University, 2011. – P. 271.

³ Graves M.A. Comrades in (Each Other's) Arms. Male Bonding Select Novels of World War I. PhD Diss., – Bowling Green State University, 1992. – P. 289.; Kittredge S. The Literary Career of Richard Aldington. PhD Diss., –New York University, 1976. – P. 601.; Gates N.T. The Poetry of Richard Aldington: A Critical Edition and an Anthology of Uncollected Poems. Penn State University Press, 1990. – P. 362.; Galloway R.E. The Poetry of Richard Aldington: A Critical Introduction. PhD Diss., Texas Tech University. 1972. – P. 344.; Kershaw A. Richard Aldington: An Intimate Portrait. –Southern Illinois University Press.1965.– P. 216.; Smith R.E. Richard Aldington.

borishganlar. Vera Brittening parallel voqealarni tasvirlash yo'sini, personajlarni tavsiflash, syujet va kompozitsiya, konflikt va xarakter yaratish mahorati kabilar borasida R. M. Roberts, K.E. Hallett, C. Bonnarjee, J. V. Damme, T.A. Askels, V. Stevart⁴ kabi adabiyotshunoslarning salmoqli tadqiqotlari mavjud.

Yevropa adiblarining ayol botiniy olamini tasvirlashda psixologizmning turli usul va vositalaridan foydalanish mahorati o'zbek tadqiqotchilari U. Ko'chimov, N. Muhammedova, X. Muhammedova, U. Fayzullayeva, S. Usmanova⁵ ning ilmiy ishlarida keng ko'lamda o'rganilgan.

“Yo'qotilgan avlod” adabiyoti, Richard Oldington va Vera Britten asarlari yuzasidan muayyan ilmiy izlanishlar olib borilgan bo'lsa-da, biroq har ikki ijodkorning epik va lirik asarlaridagi ayollar obrazining badiiy o'ziga xosligi masalasi yaxlit monografik yo'sinda tadqiq etilmagan.

Tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejaları bilan bog'liqligi. Dissertatsiya O'zbekiston davlat jahon tillari universitetida Angliya va Amerika adabiyoti tarixi va dolzarb masalalari, badiiy tahlil usul va tamoyillari ustuvor ilmiy yo'nalishlari doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi ingliz “Yo'qotilgan avlod” adabiyotida ayollar obrazining badiiy o'ziga xosligini Richard Oldington va Vera Britten asarlari misolida ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

“Yo'qotilgan avlod” namoyandalarining badiiy olami, iste'dodi, tipiklashtirish manerasi, real voqelikni qalb prizmasidan o'tkazib tasvirlash mahorati, front va front ortidagi ayollar tasvirida o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash;

Yevropa va Amerika “Yo'qotilgan avlod” adabiyotining urushda qatnashgan va qatnashmagan vakillari asarlarida personajlarning urushdan avvalgi va keyingi hayotini tasvirlashda farqli va universal jihatlarni nazariy jihatdan dalillash;

–Twayne Publishers Boston.1977. – P. 204.; Гиль О.Л. Документально-художественные биографии в творчестве Ричарда Олдингтона (книга о писателях). Дисс. канд. филол. наук. – Санкт-Петербург: Российский Государственный Педагогический университет имени А.И. Герцена, 1996. – С. 163.; Синяя А.В. Принципы музыкальной организации романной прозы XX века (Т.Манн «Доктор Фаустус», Дж.Джойс «Улисс», Р.Олдингтон «Смертьгероя»). Дисс. канд. филол. наук. – Санкт-Петербург: Российский Государственный Педагогический университет имени А.И. Герцена, 2008. – С. 168.; Фадеева С.А. Романы Р.Олдингтона 1939-х гг.: проблема жизненных установок героя, формы раскрытия авторского сознания. Дисс. канд. филол. наук., –Воронежский Государственный Университет, 2002. – С. 167.; Ионкис Г.Э. Ричард Олдингтон романист: Дисс. канд. филол. наук. – Московский государственный педагогический институт имени В.И.Ленина, 1964. – С. 165.; Урнов М. Ричард Олдингтон. – М.: Высшая шк.,1968.

⁴Roberts R.M. ‘Art of a Second Order’ The First World War from the British Home Front Perspective. PhD Diss., – the University of Birmingham, 2012. – P. 318.; Christine E. Hallett. Nurse Writers of the Great War. –Manchester: Manchester University Press, 1999. – P. 298.; Bonnerjee S. Nursing Politics and the Body in First World War Life-Writing. PhD Diss., – University of Sheffield, 2018. – P. 328.; Damme J.V. Women’s writing of World War I. Discourses of feminism and Pacifism in Rose Macaulay’s Non-Combatants and others and Vera Brittain’s Testament of Youth. Master Thesis. Gent University. 2017. – P.91.; Ackels T.A. Lest We Forget: Exploring Collective Memory in Interwar In Britain.Master Thesis.Spring Hill College.2009. – P. 156.; Stewart V. Vera Brittain and the ‘Lost Generation’. –Palgrave Macmillan, London. 2003. – P. 210.

⁵ Muhammedova N. Margaret Drebbel asarlarida ayol obrazi va uning ijtimoiy maqomining o'ziga xosligi: Filol. fan. bo'y. fal. d-ri diss. – Toshkent, 2019. –177 b.; Muhammedova X. Charlz Dikkens asarlarida ayol xarakteri tipologiyasi: Filol. fan. bo'y. fal. d-ri ...diss.– Toshkent, 2019. – 162 b.; Fayzullayeva U. Virginia Vulf romanlarida ayol ichki dunyosining tasvirlanishi: Filol. fan. bo'y. fal. d-ri ...diss. –Samarqand, 2020. – 175 b.; Usmanova S. O'zbek va ingliz romanlarida ayol ruhiyati tasviri (Abdulhamid CHO'lpon va Samuel Richardson ijodi misolida): Filol. fan. bo'y. fal. d-ri ...diss. – Farg'ona, 2021. – 177 b.; Ko'chimov U. Fantastik asarlarda badiiy psixologizm konsepsiyasi (Rey Bredberi va Hojiakbar Shayxov ijodi misolida): Filol. fan. bo'y. fal. d-ri ...diss. – Toshkent, 2021. – 141 b.

Richard Oldington va Vera Britten asarlarida urushning ishonarli tasviri, estetik ideal va uni roman badiiy to'qimasiga singdirish, ayollarning ijtimoiy tenglik va jamiyatdagi maqomini qayta ko'rib chiqib, erkaklar bilan teng huquqlilik g'oyasining ilgari surilishi, voqealar mehvaridagi ayol xarakterining mohiyatini gender muammolari nuqtai nazaridan ochib berishda yozuvchilarning badiiy izlanishlari, uslubi va poetik mahoratini ilmiy-estetik asosda tahlil qilish;

ijodkorlar asarlarida aks etgan fikr va g'oyalar, tasavvurlar ko'lamining kengligi, yozuvchilarning eruditsiyasi, badiiy tafakkur fantaziyasi asosida yaratilgan ayollar assotsiativ obrazining umumlashma va individual xususiyatlari, turli zamon va makonlar qamrovi, shakl va mazmun mutanosibligi negizida ayol – jamiyat – urush munosabatlarining badiiy ifodasini izohlash.

Tadqiqotning obyekti sifatida Richard Oldingtonning “Qahramonning o'limi” romani; “Tasvirlar”, “Troya” she'rlari va Vera Brittenning “Yoshlik vasiyati” romani; “Avgust, 1914”, “Kasalxona zahirasi” she'rlari tanlangan.

Tadqiqotning predmetini Richard Oldington va Vera Britten asarlarida ayol obrazi badiiy o'ziga xosligining qiyosiy tipologiyasi tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiya mavzusini yoritishda qiyosiy-tipologik, madaniy-tarixiy, biografik, psixologik, struktural tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

“Yo'qotilgan avlod” adabiyoti vakillarining urushda qatnashgan yoki qatnashmaganligiga ko'ra jang tasvirlarini ishonarli va hayotiy haqiqatga sodiqlik mezoni asosida gavdalantirish mahorati, asarlari mavzusining ijtimoiy, siyosiy yoki ma'naviy qiymati, ijtimoiy-falsafiy mohiyati, badiiy g'oyaning haqqoniyligi XX asr adabiy jarayonlari rakursida dalillangan;

Birinchi jahon urushi davrida ayollar mavqeining o'zgarishi; iroda va qat'iyati, individual psixologik xususiyatlari bilan bir-biridan ajralib turuvchi fazilatlar; ijtimoiy guruh yoki sinfning muhim xususiyatlarini ifodalovchi – o'z davrining umumlashmasi bo'la oladigan ayollarning tipik obrazlari Richard Oldington va Vera Britten asarlari misolida aniqlangan;

ayol va erkak yozuvchilar romanlaridagi ayollar obrazining gender xususiyatlari aniqlash orqali ayol mikroxtopografi, iztirobli o'ylaridan nurli va istiqbolli umidlari sari harakatlanayotgan yetakchi va feminist ayollarning sa'y-harakatlari, erkak dominant jamiyatda ayollarga munosabatning oshkora tasviri tarixiy haqiqat va badiiy to'qima negizida ochib berilgan;

ayol qahramonlarning botinidagi ziddiyat, real tarixiy voqelikka ularning munosabati, ayol psixologiyasining difonik va polifonik tasvirlari asosida urushga qarshi asarlar yaratish ingliz “Yo'qotilgan avlod” adabiyoti namoyandalari R.Oldington va V.Brittenning ma'naviy-axloqiy konsepsiyasi ekani qiyosiy-tipologik jihatdan dalillangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

“Yo'qotilgan avlod” adabiyotining muhim xususiyatlarini tahlil va tadqiq etish orqali chiqarilgan xulosalar zamonaviy adabiyotshunoslik uchun yangi ilmiy-nazariy tushunchalar berishi, adabiyot nazariyasi, qiyosiy adabiyotshunoslik,

Angliya-Amerika adabiyoti (XX-XXI asr) fanlaridan yaratiladigan darslik va o'quv qo'llanmalarining mukammallashuviga xizmat qilishi asoslangan;

ingliz "Yo'qotilgan avlod" adabiyoti namoyandalarining ijodiy-individual uslubi hamda epik mahorati xususiyatlarini tahlil etish imkoniyatlari kengaytirilgan;

ayol va erkak yozuvchilar nasrida ayol personajlarining gender xususiyatlari aniqlanib, Oldington va Britten asarlarida ayol xarakteri tarixiy haqiqat va badiiy to'qima negizida ochib berilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi nazariy ma'lumotlarning respublika hamda xorij olimlarining fikrlariga asoslanganligi; nazariy fikr va xulosalar qiyosiy-tipologik, madaniy-tarixiy, biografik, psixologik, tizimli-tuzilmaviy tahlil metodlari vositasida chiqarilgani; xulosalarning amaliyotga joriy etilganligi, natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundaki, chiqarilgan xulosalar jahon adabiyotshunosligida dolzarb bo'lgan "Yo'qotilgan avlod" adabiyotining o'ziga xos xususiyatlari bo'yicha mavjud ma'lumotlarni kengaytiradi, ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish amaliyotida keng foydalanish imkonini beradi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati undagi xulosalardan "Tili o'rganilayotgan mamlakat adabiyoti", "Qiyosiy adabiyotshunoslik", "Adabiyot nazariyasi", "Adabiy aloqalar", "Adabiy-badiiy tahlil metodlari" kabi fanlar va maxsus kurslarni o'qitishda, o'quv qo'llanma, darslik, majmua, lug'atlar yaratishda keng foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Ingliz "Yo'qotilgan avlod" adabiyotida ayollar obrazining badiiy o'ziga xosligi (Richard Oldington va Vera Britten asarlari misolida) mavzusida olib borilgan ilmiy tadqiqot natijalari asosida:

"Yo'qotilgan avlod" adabiyoti vakillarining urushda qatnashgan yoki qatnashmaganligiga ko'ra jang tasvirlarini ishonarli va hayotiy haqiqatga sodiqlik mezoni asosida gavdalantirish mahorati, asarlari mavzusining ijtimoiy, siyosiy yoki ma'naviy qiymati, ijtimoiy-falsafiy mohiyatiga oid taklif va tavsiyalardan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O'zbek tili va adabiyoti universitetining I-OT-2019-42-raqamli "O'zbek va ingliz tillarining elektron poetik lug'atini yaratish" mavzusidagi innovatsion loyihasida foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligining 2022-yil 25-avgustdagi 32-32/4866-son ma'lumotnomasi). Natijada Richard Oldington va Vera Brittenning tarixiy haqiqat va badiiy to'qimadan foydalanish mahoratiga doir ilmiy-nazariy qarashlar loyiha mazmun-mohiyatini boyitgan;

Birinchi jahon urushi davrida ayollar mavqeyining o'zgarishi; iroda va qat'iyati, individual psixologik xususiyatlari bilan bir-biridan ajralib turuvchi fazilatlar; ijtimoiy guruh yoki sinfnig muhim xususiyatlarini ifodalovchi – o'z davrining umumlashmasi bo'la oladigan ayollarning tipik obrazlari Richard Oldington va Vera Britten asarlari misolida aniqlangan ilmiy natijalardan O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligining jamiyatda kitob mahsulotlarini nashr etish, tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik

madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha chora-tadbirlar dasturining 35-bandiga asosan joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligining 2022-yil 7-sentyabrdagi 03-12-13-3632-son ma'lumotnomasi). Natijada jamiyatda kitobxonlik madaniyatini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar dasturining takomillashuviga xizmat qilgan;

ayol va erkak yozuvchilar romanlaridagi ayollar obrazining tasvirlanishi, gender xususiyatlari, "ayol" tushunchasining mazmun-mohiyati, his-tuyg'u va iztiroblarning ayol qalbida aks etishi, tarixiy haqiqat va badiiy haqiqat asosida aniqlangan erkak kishi ustun bo'lgan jamiyatdagi ayollar obrazi to'g'risidagi ilmiy-nazariy qarashlardan hamda ayol va erkak yozuvchilar romanlaridagi ayollar obrazining gender xususiyatlari, ayol mikroxonotopi, iztirobli o'ylaridan nurli va istiqbolli umidlari sari harakatlanayotgan yetakchi va feminist ayollarning sa'y-harakatlari, erkak dominant jamiyatda ayollarga munosabatning oshkora tasviri tarixiy haqiqat va badiiy to'qima negizida ochib berilishiga oid ilmiy natijalardan O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasining Xalqaro aloqalar va badiiy tarjima bo'limida joriy etilgan (O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasining 2023-yil 19-iyundagi 01-03/792-raqamli ma'lumotnomasi). Natijada asarlarning tarbiyaviy, ma'rifiy ahamiyatga egaligi, badiiy asarlar orqali o'zga xalqlarning hayoti, o'tmishi, turmush tarzi bilan tanishishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 6 ta xalqaro va 6 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 18 ta ilmiy ish chop etilgan. Shulardan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta maqola, jumladan, 5 tasi respublika jurnallarida va 1 tasi xorijiy jurnalda e'lon qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan tashkil topgan, umumiy hajmi 135 sahifadan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tanlangan mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, muammoning o'rganilganlik darajasi, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obyekt va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilishi, nashr qilingan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **"Yo'qotilgan avlod" adabiyotining yuzaga kelishiga ta'sir ko'rsatgan omillar va davr muammolarining badiiy ifodasi** deb nomlangan dastlabki bobi "Yo'qotilgan avlod" adabiyotining nazariy tavsifi va tahliliga bag'ishlangan.

"Yo'qotilgan avlod" adabiyoti Birinchi jahon urushida bevosita yoki bilvosita ishtirok etgan, urushning shafqatsiz tafsilotlari haqidagi asarlarini yozgan

ijodkorlar guruhiga nisbatan qo‘llaniladi. Ularning asarlarida markaziy mavzu sifatida front va frontorti voqealari tanlab olingan, vatanparvarlik tuyg‘ulari tarannum etilgan. “Yo‘qotilgan avlod” (fransuzcha – *Génération perdue*, inglizcha – *Lost Generation*) atamasi Birinchi va Ikkinchi jahon urushlari oralig‘ida yashagan avlodga nisbatan qo‘llanilgan, ikki urushni boshidan kechirgan jamiyatda yashagan odamlarning ayanchli qismati bir qancha yozuvchilar ijodida o‘z aksini topgan. “Yo‘qotilgan avlod”, aslida, o‘n sakkiz yoshida urushga ketib, jangga kirgan, urushdan keyin esa odatiy hayotga moslashishi qiyin kechgan va ko‘pchiligi o‘z joniga qasd qilgan kishilar avlodidir. Bu avlod fojiasi 1929-yili yozilgan ingliz adibi R.Oldingtonning “Qahramonning o‘limi”⁶, nemis yozuvchisi E.M.Remarkning “G‘arbiy frontda o‘zgarish yo‘q”⁷, amerikalik yozuvchi E.M.Hemingueyning “Alvido, qurol”⁸ romanlarining tasvir obyektiga aylangan. Parijda yashab ijod qilgan amerikalik adiba Gertruda Stayn “yo‘qotilgan avlod” atamasini Heminguey bilan bo‘lgan suhbatida qo‘llaydi, ya‘ni u: “*Siz hammangiz yo‘qotilgan avlodsizlar*” – deb aytadi. Heminguey ushbu iborani ichkilikka ruju qo‘ygan, umidsiz yashaydigan yosh muhojirlarning hayotini aks ettiruvchi “*The Sun Also Rises*”⁹ (“Fiyesta”) romaniga epigraf qilib olgan. Demak, “yo‘qotilgan avlod” tushunchasi Gertruda Stayn tomonidan kiritilgan va badiiy adabiyotda ilk bor Heminguey tomonidan qo‘llanilgan. Yuqorida keltirilgan “ibora to‘satdan aytilgan bo‘lishiga qaramay, urushda qatnashganlarning yo‘qotishlari, azoblari va qayg‘u-alamlarini yozuvchilar ijodi orqali aniq ochib bera olgan”¹⁰. Adabiyotda urush tufayli azob va yo‘qotishlarga mahkum bo‘lganlarga “yo‘qotilgan avlod” degan nom berildi. Shu bilan birga bu tushuncha mualliflarning shaxs sifatidagi qiyofasi, dunyoqarashi, tushunchalari, hayotiy qadriyatlarining qayta tug‘ilishi ramzi hamdir.

“Yo‘qotilgan avlod” adabiyotini Amerika va Yevropa ijodkorlari asarlari misolida tadqiq qilish jarayonida ularning barchasida mushtarak mavzular va umumiy badiiy g‘oyaning mavjudligiga guvoh bo‘lish mumkin. Adabiyotshunos, tarjimon M. Xolbekov bu holatni shunday baholaydi: “XX asrning yangi oqimlari, yangi g‘oya va mavzulari, yangicha tafakkur va yondashishlar dastlab adabiyot va san’atda, keyinchalik esa ilm-fan va ijtimoiy hayotda o‘z aksini topdi. Natijada adabiyot va san’at ahllari o‘z davri ruhini ifoda etuvchi vositaga aylandi. XX asr adabiyoti va san’atidagi yo‘nalishlarning ko‘pchiligiga, xususan, ekspressionizm, syurrealizm, “yangi roman”, “ong oqimi”, “absurd teatri”ga shaxsdagi shizofreniya, ya‘ni iroda va ixtiyorni namoyon qilishning susayishi, psixika yaxlitligining parchalanib ketish alomatlari, tushkunlik kayfiyati, ruhiy va hissiy depressiya holatlari vosita obyekti tarzida xizmat qildi”¹¹.

⁶ Aldington R. *Death of a Hero*. – London: Dundurn, 1998. – P. 308.

⁷ Remarque E.M. *All Quiet on the Western Front*. – New York: Ballentine Books, 1987. – P. 304.

⁸ Hemingway E. *A Farewell to Arms*. – New York: Forgotten Books, 2018. – P. 363.

⁹ Hemingway E. *The Sun also Rises*. – New York: Hawthorne Classics, 2021. – P. 250.

¹⁰ Затонский Д. *Художественные ориентиры XX века*. – М.: Советский писатель, 1988. – С. 75.

¹¹ Xolbekov M.N. XX asr modernizm prozasining tadrijiy talqini // <https://kh-davron.uz/kutubxona/jahon/muhammadjon-xolbekov-XX-asr-modern-adabiyoti-manzaralari-02.html>

“Yo‘qotilgan avlod” adabiyoti ijodkorlari asarlarida uch asosiy mavzu ko‘tariladi, bular: dekadentlik, gender munosabatlar va bepushtlik hamda ideallashtirilgan o‘tmish mavzulari edi.

1. Dekadentlik – badiiy va ijtimoiy tafakkurdagi tushkunlik (tanazzul) holatlarining jamlanmasi bo‘lib, ertangi kunga, insoniyat kelajagiga umidsiz qarash, inson aql-zakovati, kuch-qudrati, oliy xilqat sifatidagi mavjudligiga ishonchsizlik, mavjud voqelikni qabul qila olmaslikdir. “Yo‘qotilgan avlod” adabiyotidagi tushkunlik shaxs va jamiyat o‘rtasidagi yemirilishlar sabab yuzaga kelgan edi. Jang maydonlarida na irqiy va na diniy kamsitilmagan sobiq askarlar vatanga qaytgach, moddiyat ustunlik qiluvchi jamiyatda o‘z o‘rnini topa olmaydilar. Shuning uchun ham ular jang maydonlarida halok bo‘lganlar emas, aksincha, vatanga qaytib o‘zligini topa olmaganlar o‘likdir va ana o‘shalar o‘zligini “yo‘qotganlar” deb ta’kidlaydilar. Bir so‘z bilan aytganda, mazkur adabiy oqimning bosh mavzusi – ertangi kunga ishonchsizlik va ruhiy tushkunlikdir. Dekadentlik shohona bazmlarda ichkilikka ruju qo‘ygan, maqsadsiz ko‘chalarda daydib yuruvchi asar qahramonlari portretida namoyon bo‘ladi. “Yo‘qotilgan avlod”ga “Jaz davri” an‘analarining uyg‘unlashuvi fenomeni dekadentlik hodisasini yanada yorqinroq aks ettirganligi bilan xarakterlanadi. F.S. Fitsjdjeraldning “The Great Gatsby” (“Buyuk Getsbi”)¹², E. Hemingueyning “The Sun also Rises” (“Fiyesta”)¹³ asarlari mavzu ko‘lamida dekadentlik hodisasi ustuvorlik kasb etadi.

2. Gender munosabatlar va bepushtlik – urushga o‘zlarini xuddi ritsarlarga qiyoslab ketgan yosh yigitlar uylariga ham ruhan, ham jismonan zaif bo‘lib qaytdilar. Ular ota bo‘lish baxtidan yiroq, o‘zlarini ayollar oldida ojiz his qiluvchi aybsiz aybdorlar edilar. Ushbu zaiflik illatli odatlarga mukkasidan ketishga sababchi bo‘ldi. Ular o‘z ojizliklarini alkogol va giyohvand moddalarga qaramlik bilan yengishga harakat qilishgan. Heminguey va Remark asarlarida jamiyatning ushbu tanazzuli tarixiy va badiiy haqiqat asosida tasvirlangan. Yosh yigitlar hatto sevgan qizlariga muhabbatini izhor etolmasdilar. Bu kabi muammolar ayollarning oila va jamiyatda mutlaq mustaqillikka erishishlariga sabab bo‘ldi. Bunga Hemingueyning “The Sun also Rises” (“Fiyesta”) romanidagi Jek va Brett munosabatlarini misol qilib keltirish mumkin.

3. Ideallashtirilgan o‘tmish – sobiq urush qatnashchilarining butun o‘y-xayollari ideal o‘tmishning kechinmalari bilan bog‘langan edi. Kelajak mavhum, asosan, salbiy chizgilarga to‘la, undan hech qanday umid yo‘q. O‘sha mukammal o‘tmish ular uchun yetib bo‘lmas, kelajak esa aslo ahamiyatsiz edi. Masalan, Fitsjdjeraldning “Buyuk Getsbi” asari qahramoni Getsbi urushga ketishdan oldin sevgilisi Deyzini shu daraja ideallashtirgan ediki, haqiqatda Deyzi qanday bo‘lsa, uni shundayligicha ko‘ra olmasdi: *“Gatsby believed in the green light, the orgastic future that year by year recedes before us. It eludes us then, but that’s no matter-tomorrow we will run faster, stretch our arms farther... And one fine morning-So we beat on, boats against the current, borne back ceaselessly into the past”*¹⁴.

¹² Fitzgerald F. Scott. The Great Gatsby. – Washington: Fingerprint, 2020. – P. 184.

¹³ Ernest Hemingway. The Sun also Rises. – New York: Hawthorne Classics, 2021. – P. 250.

¹⁴ F. Scott Fitzgerald. The Great Gatsby. Washington: Fingerprint, 2020. – P. 180. “Getsbi yashil chiroqqa, yildan-yilga uzoqlashayotgan yetib bo‘lmas kelajakka ishondi. Keyin u kelajak bizni chetlab o‘tadi, ammo buning hech

Adabiyotshunoslikdan ma'lumki, badiiy asarda muallifning asosiy fikri, umumlashma xulosasi – asarning g'oyasidir. G'oya asardagi har bir qahramonning taqdiriga, ichki dunyosiga, voqea va tafsilotlarning mohiyatiga singib ketadi va natijada kitobxonning xulosasi yozuvchi xulosasi bilan mushtaraklik kasb etadi. Tadqiqotchi B.To'rayevaning ta'biricha: “Badiiy asardagi g'oya – san'at asarining mazmuniga asos bo'lgan umumlashtiruvchi, emotsional obrazli fikrdir”¹⁵. U faqat obyektiv tarzda tasvirlangan hayot manzarasi, kishilar taqdiri, voqealar mantiqi va mohiyatidan kelib chiqadi. Badiiy g'oyaning yana bir xususiyati uning umumlashtiruvchiligi bo'lib, badiiy g'oya hayotdagi hodisa va kishilarni tipiklashtirib, individuallashtirib ifoda etadi. Badiiy g'oya hayotdagi hodisa va kishilarni ko'rsatish yo'li bilan emas, balki bu hodisa va kishilarni tipiklashtirib, individuallashtirib ifoda etadi. Bunday eng muhim sifatlar “xarakterli sifatlar” deb ataladi¹⁶.

“Yo'qotilgan avlod” adabiyoti yo'nalishi vakillarining asarlaridagi asosiy g'oya moddiyatga asoslangan dunyoda insoniylikning yo'qligi, barcha qadriyatlar faqatgina mansab va boyluk bilan o'lchanishini namoyon etishda edi. Ayniqsa, urushdan keyin “yangi boylar” qatlamiga mansub yosh va yengiltabiat ijtimoiy sinfnining sayoz fikrlash darajasi va beparvolikka asoslangan hayotning dahshatli qirralarini ochib berish mazkur adabiyotning badiiy g'oyasini tashkil etadi. Shuningdek, “yo'qotilgan avlod” vakillari avlodlararo uzilish sodir bo'lganligini va ular o'sha muvozanatsiz jarayondagi qatlam ekanliklarini tan olib, atrofdan hayotlarini zarracha bo'lsa-da o'zgartirish imkonini bera oladigan yangiliklarni izlashardi. Ular har qanday tajribaga tayyor edilar, hech narsadan qo'rqmasdilar, chunki endi yo'qotadigan hech nimalari yo'q bo'lib, hayot butkul o'z mazmunini yo'qotgan edi. Shu bois, bu davrda yozilgan asarlar mavzusi, asosan, oila va jamiyatdan uzoqlashish – begonalashish haqida bo'lib, sabab va oqibatlar sirasiga ichish, chekish, ajrashish kabi beqaror odatlar kiradi. “Adabiyotshunoslikdagi begonalashish mavzusi, ya'ni insonni o'zligidan, ma'naviy salohiyatidan uzoqlashtirish, shaxs sifatida anglamaslik nuqtai nazaridan parabola-romanning badiiy-estetik g'oyasi ochiladi”¹⁷. Bu davr adabiyotining asosiy g'oyasi inson kamolotga emas, aksincha razolatga qarab ketayotganligini ko'rsatadi. Tanqidiy fikrlarni berishdan oldin sabablari o'rganilsa, barcha razilliklarni hamda yosh avlod qarashlarining izdan chiqib ketishiga yagona omil “urush” ekanligi oydinlashadi.

“Yo'qotilgan avlod” adabiyoti vakillarini ikki guruhga: “urushda qatnashgan” va “qatnashmagan”larga ajratish mumkin. Urushda qatnashib, uning tafsilotlarini o'z ko'zi bilan ko'rgan va o'z ijodlarida aks ettirgan adiblar E. Heminguey, E.M. Remark, F.S. Fitsdjerold, R.Oldington va V. Britten kabi ijodkorlardir.

“Yo'qotilgan avlod” adabiyotining boshqa guruh vakillari – Birinchi jahon urushida qatnashmagan yozuvchilar – O. Xakli, U. Folkner, G.Stayn asarlari ham muhim ahamiyatga ega. Urushda qatnashgan va uning oqibatlariga guvoh bo'lgan

qanday ahamiyati yo'q. Ertaga biz yanada tezroq yuguramiz-u qo'llarimizni yanada uzoqroq cho'zamiz... yana bir ajib tongda, biz to'lqinlarga qarshi suzgan kemalardek tinmay o'tmishga qaytishga urinaveramiz”.

¹⁵ To'rayeva B., Ko'chimov U. Adabiyotshunoslik. Darslik. – Toshkent: “Malik Print Co”, 2022. – B. 55.

¹⁶ Sulton I. Adabiyot nazariyasi. – Toshkent: O'qituvchi, 1986. – B. 172–173.

¹⁷ To'rayeva B. Zamonaviy romanchilikda xronotop poetikasining qiyosiy-tipologik tadqiqi: Filol. fan. d-ri ...dissert. –Buxoro, 2022. – B.75.

yozuvchilardan farqli ravishda, frontda bo'lmagan adiblar eshitganlariga va jamiyatda urush sabab sodir bo'layotgan katta ma'naviy yo'qotishlar, millatlarning asriy qadriyatlari, milliy tafakkuri va turmush tarzi butunlay izdan chiqayotgani, odob-axloq, insoniylik, oila va jamiyat hayoti, ongli yashash tarzi jiddiy xavf ostida qolayotganini kuzatish asosida o'z asarlarini yozadilar. Professor E.D. Muratova o'zining "Jeyms Jonsning urushi va tinchligi" monografiyasida shunday deydi: "Ushbu yozuvchilar orasida Birinchi jahon urushi tugaganidan keyin o'zlarini namoyon qilgan ijodkorlar guruhini alohida ta'kidlash lozim. Urushda qatnashgan bu yoshlarning ijodiga ularning jang maydonlarida olgan tajribalari ta'sir ko'rsatdi. Shuningdek, ularni va ularning avlodini chalkash bir kayfiyatiga, barcha ideallarining yo'qolib ketish tuyg'usiga olib keldi. Ushbu kechinmalarni S. Fitsjerald, E. Heminguey, U. Folkner va Dos Passos kabi o'z asarlarida aks ettirgan "Yo'qotilgan avlod" adabiyoti paydo bo'ldi. Garchi ularning hammasi ham urushda bevosita ishtirok etmagan bo'lsa-da, barcha yozuvchilar urushdan keyingi davr hayotida axloqiy va ma'naviy qadriyatlarning qadrsizlanishiga guvoh bo'ldilar. Aslida, "yo'qotish" tushunchasining o'zi shovinistik g'azab bilan ekilgan urush romantikasi haqidagi barcha xayollarning yo'qolishi bilan bog'liq edi. Bundan tashqari, urush xandaqlaridan qaytgan yoshlar chuqur umidsizlik natijasida hayotdan begonalashadi. Shunday qilib, "Yo'qotilgan avlod" yozuvchilarining asarlari o'sha davrdagi muammolarga guvohliklari natijasida paydo bo'ldi (Ikkinchi jahon urushi tugashi bilan adabiy tarix takrorlanadi va yangi inson fojiasini boshdan kechirgan yozuvchilar paydo bo'ladi) va Ikkinchi jahon urushi qatnashchisi Jeyms Jons o'z avlodini "topilmagan avlod" deb atadi¹⁸.

Birinchi bobning ikkinchi fasli "**Front va front ortidagi ayollar obrazining ijtimoiy-ruhiy talqini**" tadqiqiga bag'ishlangan. Adabiyotda Birinchi jahon urushi mavzusi xususida olib borilgan tadqiqotlar va ularga asos bo'lgan badiiy asarlar mohiyatiga nazar solinsa, erkaklarning askar sifatida jangda qatnashishi va mardona halok bo'lishi asosiy mavzu ekanligi e'tirof etiladi. Ushbu tadqiqot esa "Yo'qotilgan avlod" adabiyoti namunalari "urush" va "ayollar" mavzusini o'rganishga qaratilgani hamda bunday janglarda ayollarning erkaklarga nisbatan ko'proq aziyat chekkanini, ularning ruhan va jismonan azoblanganini tadqiq etishga qaratilganligi bilan xarakterlanadi.

Dunyo tamaddunida tub burilish yasagan ushbu tarixiy davrda, ya'ni Birinchi jahon urushida ayollar mavqei va ularning jang maydonlaridan tashqarida – kamsonli erkaklar bilan qolgan jamiyatda ularning barcha jabhalarda ko'rsatgan qahramonliklari haqida ma'lumot beriladi. Ushbu manbaning eng qimmatli tomoni nafaqat Yevropa ayollari taqdiri, balki Afrika, Osiyo, Avstraliya, Yangi Zelandiya va Shimoliy Amerika hududidagi ayollar hayotida Birinchi jahon urushining salbiy oqibatlari obyektiv fonda yoritiladi¹⁹. Asarning eng asosiy jihatlari sifatida quyidagilarni e'tirof etish mumkin:

urush sababli jamiyatda ayollar mavqeining ijtimoiy, madaniy va siyosiy jabhalarda ko'tarilishi;

¹⁸ Муратова Э.Д. "Война и мир Джеймса Джонса". – Ташкент: "Tafakkur qanoti", 2012, – С. 5-6.

¹⁹ <https://www.routledge.com/Women-and-the-First-World-War/Grayzel/p/book/9780582418769>

jang maydonlarida ayollarga yuklangan turli xil majburiyatlar;
ayollarning tinchlikni targ'ib qiluvchi harakatlarga rahnamolik qilishlari
hamda inqilobiy ruhdagi nutqlar bilan namoyishlarda ishtirok etishlari;
urushning ayollarga bevosita va bilvosita ta'siri.

Birinchi jahon urushi va ayollar mavzusiga bag'ishlangan asarlar tadqiqi shuni ko'rsatadiki, bu masalalarni yoritgan ijodkorlar asosan urushda qatnashmagan, ular zamonaviy adabiyot vakillaridir. Tarixiylik nuqtai nazaridan, asarga badiiy haqiqat unsurlarini qo'shish orqali arxiv ma'lumotlariga asoslanish bu turdagi asarlar konsepsiyasida yetakchilik qiladi. Vera Britten boshlab bergan an'analarni Syuzan Greyzel ("Women and the First World War" – "Ayollar va Birinchi jahon urushi"), Sofi de Shayepdriyver ("Gabrielle Petit: The Death and Life of a Female Spy in the First World War" – "Birinchi Jahon urushidagi josus ayol hayoti va o'limi"), Deborah Tom ("Nice Girls and Rude Girls" – "Muloyim qizlar va qo'pol qizlar"), Ute Daniyel ("The War from Within: German Women in the First World War (The Legacy of the Great War)" – "Ichkaridan urush: Birinchi Jahon urushida nemis ayollari (Buyuk urush me'rosi")), Margaret Darrov ("French Women and the First World War: War Stories of the Home Front (The Legacy of the Great War)" – Fransuz ayollari va Birinchi jahon urushi: Front o'chog'idan urush hikoyalari (Buyuk urush merosi)), Elizabet Shipton ("Female Tommies: The Frontline Women of the First World War" – "Askar ayollar: Birinchi jahon urushining front ayollari") davom ettirib, urushdagi yagona qoida – qoidalarning mavjud bo'lmasligidir, urush hech qanday qonun-qoidalarga amal qilmaydi, urushning yagona maqsadi – vayron etish degan xulosaga keladilar.

Tadqiqotda ingliz "Yo'qotilgan avlod" adabiyotida ayollar obrazining o'ziga xos badiiyati Richard Oldington va Vera Britten asarlari asosida tahlil etilganligi inobatga olinib, ayol obrazini tadqiq etishda *peyzaj, portret, dialog, monolog* va *ruhiyat* kategoriyalariga tayanildi.

Dissertatsiyaning **"Richard Oldington va Vera Britten asarlari "Yo'qotilgan avlod" adabiyoti kontekstida" deb** nomlangan ikkinchi bobida har ikki ijodkor romanlaridagi urushning obyektiv tasviri hamda ayol obrazini yaratishda badiiy ideal konsepsiyasi tadqiq etilgan.

"Qahramonning o'limi" va "Yoshlik vasiyati" romanlarida umumiy mavzuni Birinchi jahon urushi oqibatlarini tashkil etadi. Oldingtonning romanida bosh qahramon sifatida tanlangan erkak kishining notinch va mashaqqatli damlardagi matonati, Britten romanida esa asosiy personaj – ayolning xarakter-xususiyatlari, murakkab davrda ayollik sha'nini saqlay olgan nozik xilqatning tiynati badiiy gavdalanirilgan. Ammo har ikki romanda ham urush bois ayol va erkak o'rtasidagi nozik tuyg'u va munosabatlarning barham topishi va ba'zan hatto unutilib ketishi mohirona tasvirlanadi.

Ingliz "Yo'qotilgan avlod" adabiyotida urushning obyektiv tasvirini tahlil qilishda Richard Oldington va Vera Brittenning peyzaj va portret yaratish mahoratidagi o'ziga xoslik natijasida ayol va erkak ijodkorlar uslubidagi farqli jihatlar yanada yorqinroq namoyon bo'ladi. Oldington va Britten ayni zamon va

ayni makonni badiiy asar kontekstida tanlasalar-da, qahramon ruhiy olamining keng ko‘lamli ifodasi Britten asarlarida ustunlik qiladi.

“Qahramonning o‘limi” romani ham urush memuari, ham modern xususiyatlarini o‘zida mujassam etganligi bois, bu asarni biografik roman deb atash mumkin. Avvalo, hikoyani so‘zlab beruvchi roviyda ham, bosh qahramon Jorj Uinterbornda ham Oldingtonnikiga o‘xshash xususiyatlar mavjud. Romanga yozuvchi o‘z hayoti bilan bog‘liq voqealar va o‘ziga aloqador personajlarni ham kiritadi. Jumladan, Ezra Paund, Medoks Ford, D. X. Lourens va T. S. Eliot kabi hamkasblari va rassom do‘stlari ham ushbu asardan o‘rin olgan. Oldington ularning ismlarini mos ravishda Apjon, Shobbe, Bobbe va Tyubbelarga o‘zgartiradi, ular Jorj Uinterbornning hamkasblari, rassomlar va tengdoshlaridir. Qolaversa, romanda san‘at va axloq masalalari borasidagi fikr-mulohazalar hamda Uinterbornning haqiqatni izlab topishga urinishlari “Qahramonning o‘limi” romanidagi modernistik elementlarni namoyish etadi.

Oldington romanni yozishda imajizm qonuniyatlariga tayangan holda, uch qoidadan iborat yozish texnikasiga amal qiladi:

1) subyektiv yoki obyektiv aloqadorlik mavjud shaxs, predmet va makonga to‘g‘ridan-to‘g‘ri munosabatda bo‘lish;

2) bayonga hech qanday naf keltirmaydigan so‘zlardan foydalanmaslik;

3) ritmik o‘ziga xoslik: voqealar ketma-ketligini emas, balki musiqiy jumlar ketma-ketligini hosil qilish.

Buyuk Britaniyada Birinchi jahon urushi “Buyuk urush” nomi bilan yuritiladi. “Yo‘qotilgan avlod” adabiyoti vakillari tomonidan yozilgan asarlarda jangdagi qahramonlik va urush maydonlaridagi askarlarning bir-biriga og‘a-ini, ahil do‘stlar bo‘lib ketishi tabiiy hol. Sobiq askarlar urushdan qaytib kelgach, o‘z qahramonliklarini eslab, jamiyatdagi kamchiliklarni tanqid ostiga oladilar. Biroq, Oldingtonning “Qahramonning o‘limi” romani obyektivlik nuqtai nazaridan ahamiyatga molik, zero muallif unda urush va undagi jangchilarni qanday bo‘lsa, shundayligicha – ortiqcha bo‘rttirilgan qahramonliklarni qo‘shmasdan yozgan.

Har ikki ijodkor – Oldington va Britten asarlarida Angliya harbiy maktablarida asosan boy xonadonlarning farzandlari tahsil olishi haqida ma‘lumotlar keltiriladi. Harbiy maktablardagi bu tinglovchilar o‘zlari mansub oilaning jamiyatdagi mavqeini belgilashga o‘z “hissa”sini qo‘shardilar. Ammo urush boshlanishi bilan ijtimoiy maqomini ko‘z-ko‘z qilish maqsadida farzandining harbiy ta‘limi uchun sharoit yaratib bergan ota-onalar endi ularni urushdan olib qolish harakatiga tushib qoladilar va bu jarayonni mualliflar juda ishonarli qilib tasvirlaganlar.

Vera Brittenning “Yoshlik vasiyati” romani biografik va memuar asar hisoblanib, unda muallif badiiy talqin etgan feministik g‘oyalar va feminizm²⁰

²⁰ Feminizm – uzoq tarixiy tajribaga ega bo‘lgan ayollar haq-huquqlari uchun yo‘naltirilgan keng ijtimoiy harakat. Bu yo‘nalishning asosiy maqsadi jamiyatda hukmron bo‘lgan patriarxatni fosh etishdan iborat edi. XX asrning 60-yillar oxiri va 70-yillarning boshida jamiyat ijtimoiy va moddiy madaniyatining rivojlanishi, asta-sekin ayollarning hayotiy faoliyatida yangi o‘zgarishlarning paydo bo‘lishi, ularga berilgan haq-huquqlar, shuningdek, ularning ish-faoliyati turlarining kengayishi erkak va ayollarning teng huquqli bo‘lishini ta‘minladi. Sinfy kamsitish bilan birga jinsga nisbatan ham kamsitishning paydo bo‘lishi ayollarning noroziligiga olib keldi. Bu norozilik

haqidagi nutqlar tarixiy kontekstda muhim ahamiyat kasb etadi. Britten Birinchi jahon urushidagi iztirobli voqealarni, yaqinlarini yo‘qotib chekkan azoblarini tasvirlaydi. “Yoshlik vasiyati” romanini yozish haqidagi dastlabki g‘oyaning paydo bo‘lishi 1916 yilning martiga borib taqaladi. O‘shanda Vera Britten ukasi Edvardga shunday deb yozgan edi: “... Agar urush menga rahm qilib, tirik qolsam, yagona maqsadim to‘rtalamizning hikoyamizni kitobda abadiylashtirish bo‘ladi...”²¹. Ushbu ijodiy niyat va uning tarjimai holi paydo bo‘lishi o‘rtasidagi o‘n yetti yil mobaynida Britten o‘zining harbiy tajribalarining hayratlanarli bir nechta xayoliy versiyalarini yaratdi, ulardan ba‘zilari Britaniya arxivida Ontariodagi MakMaster universitetida saqlanadi²².

“Yoshlik vasiyati” romani “Yo‘qotilgan avlod” adabiyotining afsonaviy klassik timsoli bo‘lib, avlodlarning tushunib bo‘lmas ruhiy va jismoniy tanazzuli sabablarini yoritishga qaratilganligi bilan ahamiyatlidir. Brittenning erkak do‘stlari urushning dastlabki davrida davlat maktablari yoki Oksbrijdan to‘g‘ridan-to‘g‘ri Italiya va Fransiyadagi o‘lim maydonlariga yuborilgan kichik zobitlar edi. Ushbu kichik zobitlarning demografik sinf sifatida o‘lim xavfi darajasi boshqa ofitserlarga yoki umuman armiyaga qaraganda ancha yuqori edi. Brittenning sevimli ukasi va ko‘ngil qo‘ygan yigiti tahsil olgan Appingem maktabi urushda xizmat qilgan o‘z o‘quvchilaridan beshdan birini yo‘qotdi. Malvern yepiskopi Malvern kollejining xususiy maktabidagi urush yodgorligini ochar ekan, sobiq talabalarning urushda halok bo‘lganligini “butun avlodning yo‘q qilinishi deb ta‘riflash mumkin” degan fikrni atadi²³. Ba‘zi manbalarda yo‘qotilgan avlodning mavjudligi statistika tomonidan to‘liq tasdiqlanmagan²⁴. Ammo, kichik zobitlarning nomutanosib ravishda yuqori o‘lim ko‘rsatkichi hisobga olinsa, Brittenning urushda halok bo‘lganlar haqida “ingliz jamiyatining eng ziyoli va kuchli qatlami yo‘q bo‘lib ketdi deyishi hech qanday mubolag‘aga kirmaydi. Robert Vol “yo‘qotilgan avlod”ga, ya‘ni tirik qolganlarga g‘amxo‘rlikning hojati yo‘qligini, chunki har safar ko‘ngil berib, ularga hamdard bo‘lishi unutilgan yaralarning qayta tiralishiga sababchi ekanligini iztirob bilan tushuntirishga harakat qiladi²⁵.

Vera Britten o‘z asarini yozishda kelajak avlodni sodda idealizm va urushning soxta jozibasiga bo‘ysunish xavfidan ogohlantirishdek ijodiy maqsadni ko‘zlagan

Yevropa mamlakatlarida o‘z ifodasini topib, XIX asrning oxirida ayollarning inqilobiy yo‘nalgan “feministik harakat” nomli oqimida o‘z aksini topdi. Feminizm o‘z rivojlanish taraqqiyotida uch bosqichni bosib o‘tdi. Birinchi bosqich XIX asrdan to XX asrgacha bo‘lgan davrni o‘z ichiga oladi va ayollarning ovoz berish huquqini qo‘lga kiritishga qaratadi. Ayollar fuqarolik va siyosiy huquq uchun kurashdilar. Ikkinchi bosqich esa 1960–1970-yillarda faqat oila muammolari va ayollarning ish joylaridagi tengsizliklarga e‘tibor qaratdi. Ayollar huquqlari amalga oshmayotganligini ta‘kidlashar, uyda ham, ishda ham hurmat qilishlarini talab qilardilar. Feminizmning uchinchi bosqichi 1990-yildan boshlanib, hozirgi kungacha davom etmoqda.

Феминизм: <https://ru.wikipedia.org/wiki/Феминизм>. Геродот. История. – М.: Инфра-Пресс, 1999. – С. 181.; Плосьь Г. Женщина в естествоведении и народоведении. – Сыктывкар-Киров: Вятка, 1995. – С. 282.; История древнего Востока. – М.: Восточная лит-ра, 2004.; Массон В.М. Средняя Азия и Древний Восток. – М., 1964.

²¹ Vera Brittain to Edward Brittain. Letters From a Lost Generation: First World War Letters of Vera Brittain and Four Friends. Edited by Alan Bishop and Mark Bostridge. – London: Little, Brown, 1998. – P. 242.

²² <http://library.mcmaster.ca/archives/findaids/findaids/b/brittain.htm>. [Мурожаат санаси 0910.2021]

²³ Kernot C.F. British Public Schools’ War Memorials. – London: Roberts & Newton, 1927. – P. 136.

²⁴ Winter J.M.. The Great War and the British People. – London: Macmillan, 1986. – pp. 65-99.

²⁵ Wohl R. The Generation of 1914. – London: Weidenfeld & Nicolson, 1980. – P. 115.

edi. “Yoshlik vasiyati”ning urush haqida erkak memuarlar yozgan asarlardan ajralib turadigan salmoqli farqlari bor. Adiba urushni ayol nazdida, ayollarga xos hissiy kechinmalar asosida tasvirlaydi. Masalan, Edmund Blanden urushning butun shafqatsizligini chuqur tragizm bilan ochib berib, uning befoydaligi va tushunarsizligini ko‘rsatishga harakat qilsa, Britten aksincha, urush nima uchun va qanday sodir bo‘lganligi, shuningdek, kelajakda uning oldini olish mumkinligini asoslab tushuntirishga harakat qiladi.

Brittenning urushda hamshira sifatida qatnashib, o‘zi guvoh bo‘lgan dahshatli ko‘rinishlari hamda hayotidagi yaqin kishilarini yo‘qotishi kabi voqealar uning qalbida patsifizm hisining uyg‘onishiga sabab bo‘ldi. Urushdan so‘ng u Birlashgan Millatlar Ligasida hamkor sifatida ishlay boshlaydi. U internatsionalizm sohasi bo‘yicha ma‘ruzalar o‘qiydi va Liga uchun Angliya bo‘ylab nutqlar so‘zlash bilan bir qatorda ayollar harakatini rivojlantirish uchun maqolalar ham yozadi²⁶. Bunga misol tariqasida uning “O‘z rolini o‘ynamaydigan ayollar” (1933) va “Dunyo ayollari urushni to‘xtata oladimi?”(1934) kabi maqolalarini keltirish mumkin.

Vera Brittenning “Yoshlik vasiyati” asarini nafaqat ayol ruhiyatidagi iztiroblar, balki Buyuk Britaniyaning o‘sha davrdagi yosh avlodi boshidan kechirgan mashaqqatlar haqidagi xotiralar, yozuvchining shaxsiy tajribasi, yo‘qotishlari va albatta, Birinchi jahon urushi haqidagi muhim ma‘lumotlar manbai deyish mumkin. U o‘z asarlarida XX asr boshlarida ingliz ayollarining hayoti va maqomining o‘zgarishi, ularning jamiyatdagi o‘rni xususida bahs yuritadi. Shuningdek, ayollarning yangi jamiyatni rivojlantirishga, ularning madaniy va ma‘naviy mavqeiini mustahkamlashga qo‘shgan shaxsiy hissiy qanday bo‘lganligi haqida mulohazalarini bildiradi²⁷.

“Yoshlik vasiyati” romanida muallif badiiylik mezonlaridan biri – ishonarvarlik prinsipidan urush, jangchilar, yaradorlar va hamshiralar obrazini yaratishda, o‘z hayotiy bilimlariga tayangan holda foydalanadi. Asar boshidanoq – Veraning nemis tilini mukammal bilishi Oksfordning Sommervil kollejiga imtihon topshirish jarayonida ma‘lum bo‘lgan edi. Ammo o‘sha davrda Vera Britten yashagan va xizmat ko‘rsatgan hududlarda ko‘pchilik insonlar nemischa so‘zlarni biroz hayrat va nafrat bilan qabul qilishardi. Vera ko‘ngilli sifatida urushda qatnashib, yaralangan va asirga tushgan nemis jangchilariga yordam ko‘rsatish bo‘linmasida ishlayotganida bu tildan ko‘p foydalanardi. Hamshiralar romanda do‘st va dushman tomonini ajratmaydigan, ba‘zan vatanparvarlikdan ko‘ra insonparvarlikni afzal ko‘ruvchi obrazlar sifatida gavdalantirilgan. Urushda o‘layotgan nemis askarlarining qo‘lidan ushlab, o‘limi oldidan ularning o‘z ona tilida hamdardlik bildiradigan yagona insonlar ham, albatta, hamshiralar edi. Asardagi yana bir antiteza bir oilaning ikki farzandi Edvard va Veraning urush davridagi amallarida kuzatiladi. Edvard jang maydonlarida nemis askarlarini o‘ldirayotgan bir paytda Veraning gospitalda yaralangan nemis askarlarini hayotga

²⁶ Bennett Yvonne A. Vera Brittain: Feminism, Pacifism and Problem of Class, 1900-1953. – London: Atlantis 12.2, 1987. – P. 20.

²⁷ Brittain V. Testament of Youth. – New York: The MacMillan Company, 1933. – P. 661.

qaytarishi va ularning umrini saqlab qolish uchun kurashishini ba'zan adibaning o'zi ham tushuntirib berolmaydi.

Vera Britten asarida urush manzaralari asosan hamshira ayolning ma'sum va mayus nigohi bilan tasvirlanishi e'tiborga loyiqdir. Adiba jang maydonlarini, askarlarning bir-birini o'ldirishi va yoki yaralashini emas, aksincha, yaralanganlarning hayot uchun kurashishi yoki bir umr nogiron bo'lib, kimgadir qaram bo'lib yashashdan ko'ra gospitalda o'z joniga qasd qilish holatlarin badiiy gavdalandiradi. Yaralanganlar kuchga to'lib, jang maydoniga qaytganida yana yashashni xohlaydilar. Demak, urush shunday bir o'ziga tortuvchi maydonki, agar yaralansang, seni qayta davolashadi, so'ngra seni yana urush komiga jo'natishadi. Bu urushdan yo o'lib, yo o'zingni o'ldirib qutulasan. Ushbu fikrning isbotini Veraning eng yaqin kishilari – Edvard, Roland, Viktor va Jefri obrazlarining ayanchli qismatida ko'rish mumkin.

Mazkur bobning ikkinchi faslida **“Ayol obrazini yaratishda badiiy ideal konsepsiyasi”**ga oid masalalar o'rganilgan. Har ikki yozuvchining ayol obrazini yaratishdagi badiiy ideal konsepsiyasi *avtobiografizm* ruhi bilan sug'orilgan. Ular o'zlari guvoh bo'lgan va real olam voqealarini badiiy talqin etadilar. Shuni ta'kidlash joizki, Oldington va Vera Brittenning badiiy ideallari mualliflarning estetik qarashlarini yorqin ifoda etgan bosh qahramon obrazlaridir. Ijodkorlarni qo'liga qalam olishga da'vat etgan boshlang'ich asos – estetik idealdir, ular yaratgan badiiy timsollar esa estetik idealni ro'yobga chiqarish vositalari hisoblanadi.

Vera Britten Blanden, Sassun va Greyvsning urush haqidagi kitoblarini sinchkovlik bilan o'rgandi va shu asarlar “Yoshlik vasiyati”ning badiiy qimmatiga hissa qo'shganini ta'kidlaydi. Biroq Britten nazarida, bu asarlarning hech biri ayollarning urushdagi rolini yetarli darajada ko'rsata olgan emas. Shuningdek, u Oldingtonning “Qahramonning o'limi” romanini o'qir ekan, asar borasida “Vaqt va Oqim”da “...jaholat, ahmoqlik va qadriyatlar bugungidan yolg'onroq bo'lgan urushdan oldingi sivilizatsiyaning dahshatli ayblovi”²⁸, deya izoh keltiradi. Bundan tashqari, u Oldingtonning romaniga uning mizoginiyasi²⁹ deb qarab, urush paytida ayollarning azob-uqubatlariga nisbatan “g'azabli behayo nafratini” ifodalagani uchun tanqid qiladi. Zero, hech bir erkak, u qanchalik hamdard bo'lmasin, ayol uchun va ayollar nomidan gapira olmasligini Britten shaxsan o'zi o'sha urushning guvohi bo'lganligi bois juda yaxshi tushunardi.

Asarda Veradan boshqa ayol personajlar uning darajasiga ko'tarila olmaganlar. Veraning onasi, o'qituvchilari, dugonalari va urushdagi boshqa hamshiralalar ham ikkinchi planda tasvirlanadi. Demak, romanning bosh qahramoni Vera Britten personajlar orasida dominantlik xususiyatiga ega. Urushda eng yaqinlaridan ayrilgan adiba Oksfordga qaytib, umidsiz va mazmunsiz hayot kechiradi, chunki uning mashg'ulotlari hech qanday ahamiyatga ega emas edi. U urushning aziyatini his qilgan sinfdoshlari uchun gazeta va radioda ma'ruzalar

²⁸ Brittain V. Time and Tide. – London: Virago, 1999. – P. 230.

²⁹ Mizoginiya (yun. – “ayollarga nafrat”) – ayollarga nisbatan nafrat va dushmanlik bilan ifodalangan salbiy munosabat.

o'qiydi. Biroq urush umuman olganda, jamiyatni o'zgartiradi, u yanada individuallashadi, chunki uning "men"i endi yo'q, kurashish kerak. "Mazmunidan ayrilgan tinchlik" muhitida inson o'zligini yo'qotishi hech gap emas. Vera Britten "avlodning xaotik reaksiyalarini, har kuni kechqurun urush o'g'irlagan yo'qotilgan yoshlikni qaytarib olishga urinish uchun raqsga tushish", "avlodlari tunda tentirab raqs tushayotgan", "yo'qotilgan yoshlarni qaytarib olish uchun behuda umidi o'g'irlangan" davr haqida keng planda yoza olganligi bilan boshqa yozuvchilardan tubdan farq qiladi.

Umuman olganda, ingliz adabiyotida chuqur iz qoldirgan Vera Britten o'zining "Yoshlik vasiyati" asari orqali ruhiyatida ichki ziddiyat ifodalangan ayol obrazini yarata olganligi bilan boshqa yozuvchilardan tom ma'noda farqlanadi. Vera Brittengacha bo'lgan yoki undan so'ng yashab ijod etgan yozuvchilar ham o'z asarlarida ayol obrazini yaratganlar, ammo ushbu yozuvchi ulardan farqli ravishda, ayol qiyofasida davr ruhining o'ziga xos chizgilarini aniq va ravshan namoyish qila olganligi bilan ham ajralib turadi. Bosh qahramon timsolida ikki xil karakter-xususiyat umumlashtiriladi, ya'ni asarning boshida tasvirlangan Vera tiynatidagi dinamika voqealar rivoji mobaynida vertikal rivojlanadi. Tantiq, qaysar fe'lli, turmushga chiqishni umuman xohlamagan, o'z erkini bo'g'ishlariga chidab turolmaydigan, o'z maqsadi yo'lida tinimsiz harakat qiladigan Vera urush masaqqatlari sabab, chuqur mulohazali, bosiq, vazmin, do'stga ham, dushmanga ham birdek yordam qo'lini cho'zadigan olijanob Veraga aylanadi. Vera Brittenning "Yoshlik vasiyati" asarida ayol obrazlari realizm va psixologizm bilan boyitilgani, bir tomondan, yozuvchining yuksak mahorati deb baholansa, ikkinchi tomondan, ushbu obrazlarning badiiy o'ziga xosligini ko'rsatishi mumkin. Shunday ekan, ayollar obrazi Vera Brittenning badiiy asarlarida asosiy o'rinni egallaydi.

Richard Oldingtonning "Qahramonning o'limi" asarida uchta asosiy ayol qahramon mavjud bo'lib, Jorj Uinterborn obrazini shakllantirishda, uni kashf etishda muhim vazifalarni bajaruvchi bu personajlar – Jorjning onasi Izabel, rafiqasi Elizabet va ma'shuqasi Fennidir. Jorj Uinterborn hayotida bu "ayollar uchligi" mustahkam o'rin olgan, ya'ni ayol qahramonlar uchburchagining markazida Jorj Uinterborn turadi va ularning har biri asar bosh qahramonining muayyan makon va zamonda shaxs sifatida shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Jorj Uinterbornning ota-onasining prototiplari Richard Oldingtonning ota-onasidir. Xuddi asar qahramoni kabi muallif ham ota-onasidan nafratlanar edi. Asar boshidanoq Izabelning xiyonatkor, yengil tabiatli ayol ekanligiga muallif uning yigitlaridan biriga to'y kuni nikoh marosimini tasvirlab yozgan maktubi orqali ham ishora beradi. Biroq Oldington Izabelni butunlay salbiy bo'yoqlar bilan tasvirlash yo'lidan bormaydi. O'sha davr uchun kamyob va hatto juda qadrlanadigan qobiliyat – yozish va o'qish ko'nikmalarini egallagan Izabel asarda hatto yuksak e'tirof bilan tilga olinadi. Izabel – u dindor ayol edi. Demak, xudoni tanigan, cherkovga borib ibodat qiladi, lekin erli ayol bo'la turib, eriga xiyonat qiladi. Shu o'rinda asarning birinchi paradoks nuqtasi kuzatiladi.

Izabelning ruhiyati – ichki portretini yaratishda adib kontrast va parallel ravishda peyzajdan ham unumli foydalanadi.

Muallif portret tasviri yordamida Elizabetni urushdan oldingi Britaniya ayollarining bir tipi sifatida tasavvur qilishga imkon beradi. Tashqi ko‘rinishidan juda ham maftunkor ayol emasligi ma‘lum bo‘lsa-da, muallif uni o‘z o‘lchamlari yordamida ideallashtirib tasvirlashga harakat qilgan. “Qahramonning o‘limi” romanida Jorj har qanaqasiga ularning xarakteri, his-tuyg‘ulari, didi va boshqa individual belgilarini ta‘riflamasin, Elizabet va Fenni mutlaqo bir-biriga zid, biri quyi va yana biri ustun sifatleri bilan namoyon bo‘laverar va bu Jorjning Fenniga bo‘lgan qiziqishlarini orttiraverardi. Uning nafaqat ko‘zlari, o‘zini tutishi, tashqi ko‘rinishi, hatto kiyimlarigacha erkaklarni o‘ziga rom etardi. Jorj bu ikki ayoldagi qaysi sifatni o‘ylamasin, Elizabetda salbiy, Fennida ta‘riflab bo‘lmas ijobiylik yuzaga chiqaverardi. Qahramonlar portreti bir-biriga zidlash orqali parallel ketma-ketlikda berilgan tasvirlarda Oldingtonning ayollar obrazini yaratishdagi mahorati – dinamik va statik obraz tasvirlash usullari qamrab olingan.

Shu o‘rinda muallifning yana bir iqrori yuzaga chiqadi. Jorj onasidan, uning o‘tmishdagi xulq-atvoridan qochib, Londonga keladi va bu yerda endi ikki dugona – qonuniy rafiqasi Elizabet hamda u butun borlig‘i bilan sevib qolgan Fenni o‘rtasida sarson bo‘lishdan qochib, urushga ketishni yagona chora deb biladi. Butun asar davomida “ayollar uchligi” Jorj Uinterbornning harakatlanish lokatsiyasini belgilab beradi. Makon va zamon nuqtai nazaridan Jorjning qayerga borishi va qanday ish tutishi o‘zidan ko‘ra uning hayotidagi ana shu uch nafar ayolga bog‘liq edi.

Jorj harakatlarini yuzaga keltiruvchi dinamika – ayollarning unga va jamiyatning boshqa a‘zolariga munosabatlari orqali amalga oshiriladi. Shularni inobatga olib, “ayollar uchligi” – harakatlarni yuzaga keltiruvchi personajlar va Jorjning o‘zi – ta‘sir ostida harakatlanuvchi personaj degan xulosaga kelish mumkin.

Richard Oldington va Vera Britten asarlaridagi ayol qahramonlar va urush masalasi ko‘ndalang qo‘yilganda, Oldington ayol personajlar tasviriga asosan urushdan oldingi davr voqealarida ko‘proq urg‘u bergan bo‘lsa, Vera Britten o‘zi markaziy xarakter sifatida avtobiografik roman voqealariga va davr muammolariga ayol nigohi bilan nazar soladi, ularni o‘sha ong va hissiyotlariga tayanib tahlil qiladi.

“Uslub va badiiy mahorat uyg‘unligi: proza va poeziya” deb nomlangan so‘nggi – uchinchi bobda Richard Oldington va Vera Brittenning badiiy mahorati har ikki ijodkorning nasriy va se‘riy asarlari misolida tadqiq etilgan.

Richard Oldington va Vera Brittenning nasriy asarida ham she‘riy misralarni matnga uyg‘unlashtirib qo‘llashi o‘quvchiga obraz kechinmalarini, uning ichki dunyosini va asar kulminatsiyasini ta‘sirli yetkazib berishi uchun yaxshi imkoniyat yaratgan.

Tadqiqotda ta‘kidlanganidek, Richard Oldington imajizm tendensiyasi xususiyatlarini aks ettiruvchi she‘riy asarlari bilan ingliz “Yo‘qotilgan avlod” adabiyotida o‘z o‘rniga ega. Aynan ushbu tendensiyaning imkoniyatlari va

mohiyatini ochib beruvchi she'rlardan biri "Images"³⁰ ("Tasvirlar") deb nomlangan bo'lib, Oldington mazkur she'ri orqali "Yo'qotilgan avlod" adabiyotida sevgi-muhabbat mavzusini yoritadi.

"Tasvirlar" fikrning ravon va tushunarli ifodasi hamda misrama-misra o'sib boruvchi tasvirlarda faqat ko'tarilish/yuksalish ohangini eslatuvchi she'r bo'lib, Oldington uni turli hajmdagi olti bandga ajratadi. Bu bandlar uch misradan besh misragacha. She'r modern she'riyat an'analari asosida yozilgan, qofiya va vazn birligiga ega emas. Shoir o'z sevgilisi siymosini yaratishda tabiat manzaralaridan unumli foydalangan. Tasvirlarda Venetsiya suvlarida tog' yonbag'irlari bo'ylab qizil qayiqcha tomon suzib borayotgan gondola kemasining aksi hamda kuchli shamollarga qarshi kurashib, hayotga qaytgan gul kabi obrazlar yor timsolini aks ettirishda parallel qo'llaniladi.

*Like a gondola of green scented fruits
Drifting along the dank canals of Venice,
You, O exquisite one,
Have entered into my desolate city.*³¹
(Yashil xushbo'y mevali gondola kabi
Venetsiya suvlaridan suzib kelasan.
Sen, ey, mening dilbarim, jonim,
Kimsasiz shahrimga kirib kelasan.)³²

Oldington she'rni o'xshatish bilan boshlaydi, ya'ni Venetsiya suvlarida suzib kelayotgan gondola qayig'i xuddi oshiqning yuragidan suzib o'tayotgan ma'shuqaga qiyoslanadi. Oldingtonning bir necha bor uylanganligi va hayotida undan tashqari bir necha norasmiy sevgi munosabatlari bo'lgani "Qahramonning o'limi" romanida ham tasvirlangan. Ushbu she'rda shoir o'z holatini juda sodda usulda tasvirlar ekan, uning ko'nglida sevgilisidan boshqa hech kimga o'rin yo'qligiga ishora qiladi. She'rda oshiq va ma'shuqa obrazlari roviy nutqi orqali ijobiy va salbiy bo'yoqlarda aks ettirilgan. Sevib qolgan oshiq holati vayron bo'lgan shaharga qiyoslansa, ma'shuqa qiyinchiliklarni pisand qilmaydigan gulga o'xshatiladi.

Vera Britten ijodida ham she'riyatning o'rni salmoqli. Shoira nasrda oshkor eta olmagan his-tuyg'ularini nazmda mohirona ifodaladi. "Yoshlik vasiyati" romanida ham she'riy misralar qahramonlar ruhiy olamini teranroq anglatish imkonini beradi – kitobxonga yanada tushunarliroq yetkazish vazifasini bajaradi. Muallifning "August, 1914"³³ ("Avgust, 1914") deb nomlangan she'ri o'z davrida ham juda mashhur bo'lgan. Urushga qarshi ruhda yozilgan ushbu she'r o'z davrida urush "muqaddas" deb bong urayotgan ijtimoiy kuchlarga achchiq istehzo tarzida bitilgan edi. Urush millionlab insonlarni yaqinlaridan – ota-onasidan, yoridan, farzandlaridan ayirgan vahshiy qotil ekanligi, urush oqibatida ko'plar aziyat

³⁰ Classic Poetry Series. Richard Aldington. Poems. Poemhunter.com–The World's Poetry Archive, 2000. – P. 20.

³¹ Classic Poetry Series. Richard Aldington. Poems. Poemhunter.com–The World's Poetry Archive, 2000. – P. 13.

³² Tarjima muallifniki.

³³ Brittain V. Verses of a V.A.D. – London: Erskine MacDonald, 1918; reprinted in VB, Because You Died: Poetry and Prose of the First World War and after, edited with an introduction by Mark Bostridge. – London: Virago, 2008. – P. 13.

chekkanlar, ayniqsa, farzandidan ayrilib, nido chekkan ota-onaning ayanchli dardini eshitish, yoridan ayrilgan ayollar iztirobini his qilish hammasidan og'irligi she'rda o'z ifodasini topgan. Har bir bandi uch misradan iborat uch bandli she'r orqali shoira urushda hech qanday ijobiy xususiyat yo'qligini isbotlashga harakat qiladi. Qofiyalanishi – a-b-a, b-s-b, s-a-s shaklida bo'lgan she'rning har bir misrasi sakkiz bo'g'indan iborat. Qofiya va o'lchami juda aniq bo'lgan she'rda Britten prozaik unsurlardan ham unumli foydalanadi, jumladan, assonans, alliteratsiya va sezuralarning qo'llanilishi she'rning badiiy qimmatini yanada oshirgan. Sezura, bu – she'rning ayrim qismlarida to'xtab olishni anglatib, berilayotgan she'r mazmunini tiniqroq idrok etishga imkon yaratadi. Ushbu she'rni ham xuddi Richard Oldingtonning “Tasvirlar” she'ri kabi bandma-band ko'rib chiqamiz:

God said, “Men have forgotten Me:

*The souls that sleep shall wake again,
And blinded eyes must learn to see.”³⁴*

(Xudo dedi: Odamlar meni unutishdi:

Uxlayotgan ruhlar uyg'onmog'i kerak,

Va so'qir ko'zlar ko'rishni o'rganishi shart.³⁵)

She'rning birinchi bandida notiq Xudoning aytganlarini o'quvchiga yetkazadi. Xudoning aytishicha, odamzod uni quvonch-u shodliklar, qayg'u-yu alamlar ichra unutib qo'ygan. Xudo endi o'zini sajda qilishga loyiq ko'rilmayotgandek, odamlar uning borligini his qilishdan to'xtagandek va u haqda fikr yuritmayotgandek xulosaga keladi. Endi bu xatoni to'g'rilash vaqti keldi, deya qilgan xitobiga javoban o'zi nima qilishni sodda va samimiy fikrlar bilan ta'kidlaydi, ya'ni g'aflat bosgan ko'ngillarning uyg'onishi va so'qir ko'zlar ochilishi lozim. Aynan ushbu ikki misra insoniyatga xos bo'lgan ezgu tuyg'ular – his qilish sezgisi yo'qolganini ifodalash orqali o'zgalar dardini his qilmaydigan darajada toshyurak, hayotning ma'naviy-ruhiy qadriyatlarini, mezonlarini ostin-ustun qilib tashlaydigan, yovuzlik urug'ini ekkan xoin, sotqin, badbin kimsalar o'zgalar muammosini ko'rolmaydigan darajada so'qir, degan mazmun kelib chiqadi. Bu sifatlar aynan urushni boshlaganlar va urushni muhim sanagan ma'nan tanazzulga yuz tutgan jamiyat a'zolariga tegishli edi. Agar ular urush halokatini, insoniyat boshiga yog'dirgan kulfat va talafotlarni his qila olsalar, ko'ra olsalar hech qachon urushga rozi bo'lmasdilar. She'rda lirik qahramonning yorug' kelajakdan umidi bor, u Xudoning so'zlarini kitobxonlarga yetkazarkan, “qalblar uyg'onish”ni, “ko'zlar ko'rish”ni o'rganishi kerak, deb ta'kidlaydi. Demak, urushni to'xtatishga ozgina bo'lsa-da, ilinj va ishonch bor. “O'rganish” kimlarga xos, shu narsani bilmaganlarga, ilmsizlarga xos. “Learn” – “o'rganish” asosan ijobiy bo'yoqdorlikni ko'rsatishda qo'llanuvchi fe'l va shoira ham aynan shu so'z orqali she'rga optimistik ruh berishni ko'zlaydi.

Birinchi jahon urushi boshlanganida Vera Britten hamshiralikka qabul qilinarkan, o'zini tezda urushni to'xtatishga qodirdek his qilgani, hech qancha

³⁴ Brittain V. Verses of a V.A.D. – London: Erskine MacDonald, 1918; reprinted in VB, Because You Died: Poetry and Prose of the First World War and after, edited with an introduction by Mark Bostridge. – London: Virago, 2008. – P. 13.

³⁵ Tarjima muallifniki.

fursat o'tmasdan esa niyatlarining sarobga aylanganini tushunib yetadi. Bu holatni "*Hospital Sanctuary*"³⁶ ("Kasalxona zaxirasi") she'rida quyidagicha ifodalaydi:

*When you have lost your all in a world's upheaval,
Suffered and prayed, and found your prayers were vain,
When love is dead, and hope has no renewal –
These need you still; come back to them again.*³⁷
(Dunyo g'alayonida bor-budingni yo'qotsang,
Dard cheksang-u duo qilsang, bari sarobga ketsa.
Muhabbating qurbon bo'lsa, umidlaringsiz qolsang,
Qaytavergin ularga, gar seni tark etmasa.³⁸)

Ushbu she'r Vera Brittenning hamshiralik faoliyatiga asoslanib yozilganligi bois, she'rdagi lirik qahramon – o'z sevgilisiga qo'shib barcha umidlarini yo'qotgan ayol. Ammo u boshqalarning muhabbati tirik qolishi uchun har kuni tinmay kurashadi. Xuddi harbiy hamshiralar kuchli matonatga ega bo'lishi uchun qadrlil insonlarini, tuyg'ularini yo'qotishlari kerakdek, o'tmishga qaytishdan aslo voz kechmaydigan lirik qahramon sifatlarini namoyon etadi. "Yo'qotilgan avlod" adabiyotining asosiy xususiyatlaridan biri "ideal o'tmish" ekanligi tadqiqot davomida tahlil qilindi. Britten ham ushbu adabiy tendensiya xususiyatlarini namoyon etib, erishib bo'lmas, imkonsiz, o'sha betakror o'tmishga qaytishni xohlayveradi. Tarix varaqlarida uning seviklisi Roland, qadrdon ukasi Edvard va do'stlari bor edi.

Garchi Vera Britten "Yoshlik vasiyati" romani va nasrdagi qobiliyati bilan adabiyotshunoslar va o'quvchilar e'tiborini qozongan bo'lsa-da, uning nazmdagi salohiyati, so'z tanlashdagi sinchkovligi hamda fikrni g'oyaga aylantirish salohiyati rad etib bo'lmas hodisadir.

Richard Oldington va Vera Britten asarlarida yozuvchi uslubi va mahorati masalalari bo'yicha olib borilgan izlanishlar har ikki ijodkorning nazmiy va nasriy asarlarida "Yo'qotilgan avlod" adabiyoti xususiyatlari yetakchilik qilishini ko'rsatdi. Shu bilan birga, bu adiblarning o'zlari yashagan davr ijodkorlari orasidagi originalligi va novatorligi asarlari badiyatining o'ziga xosligini namoyon etadi. Oldington va Britten uslubining o'xshash tomonlaridan biri sifatida ularning nasriy asarlarida she'riy parchalardan o'rinli va unumli foydalanishlari, ruhiy po'rtanalarni dialog, monolog va hatto ichki monologda ham she'riy parchalardagi kabi tiniq yetkaza olishliklari tadqiqotda isbotlandi. Asarlarda nazmga xos xususiyatlarning ustunligi ushbu yozuvchilarning ikkala shaklda ham erkin va mohirona ijod qilish imkoniyatiga ega ekanliklaridan dalolat beradi.

³⁶ Brittain V. *Verses of a V.A.D.* – London: Erskine MacDonald, 1918; reprinted in VB, *Because You Died: Poetry and Prose of the First World War and after*, edited with an introduction by Mark Bostridge. – London: Virago, 2008. – P. 28.

³⁷ Brittain V. *Verses of a V.A.D.* – London: Erskine MacDonald, 1918; reprinted in VB, *Because You Died: Poetry and Prose of the First World War and after*, edited with an introduction by Mark Bostridge. – London: Virago, 2008. – P. 28.

³⁸ Tarjima muallifniki.

XULOSALAR

1. Yevropa va Amerika “Yo‘qotilgan avlod” adabiyotiga mansub dekadentlik, gender munosabatlar va bepushtlik hamda ideallashtirilgan o‘tmish kabi uch asosiy mavzu o‘z davrida yaratilgan betakror asarlarda fikrning yangiligi, ifodaning tushunarligini ta‘minladi, adiblar uslubining individual o‘ziga xosligi, tasvir originalligi va tuyg‘ular ifodasi to‘liqligiga erishish uchun zamin hozirladi. Asosiy g‘oya esa insonparvarlikning tanazzulga yuz tutishi, qadriyatlarining mansab va boylik bilan o‘lchanishi, insonning kamolotga emas, razolatga qarab ketayotganligi bilan xarakterlanadi.

2. “Yo‘qotilgan avlod” adabiyoti vakillarini shartli ravishda ikki guruhga – urushda qatnashgan (E. Heminguey, E.M. Remark, F.S. Fitsdjerold, R.Oldington, V. Britten) va urushda qatnashmasdan, urush tafsilotlaridan doim xabardor bo‘lgan, jamiyatda urush sabab sodir bo‘layotgan muammolar asosida asarlar yozgan yozuvchilar (O. Xaksli, U.Folkner, G.Stayn)ga ajratish mumkin.

3. Birinchi jahon urushi voqealari va ayol – jamiyat – urush triadasi badiiy tasviriga bag‘ishlangan asarlar mualliflari asarga tarixiy haqiqat unsurlarini qo‘shishda arxiv ma‘lumotlariga, yaqinlariga yozgan maktublari yoki kundaliklariga asoslanishi shu turdagi asarlar konsepsiyasida yetakchilik qiladi.

4. Gender munosabatlarda sog‘lom jamiyat an‘analarining shakllanish jarayoni ham Birinchi jahon urushi bilan bog‘liq voqealarga borib taqalishi xususidagi ma‘lumotlar “Yo‘qotilgan avlod” adabiyoti namunalarida bayon etilib, urush ayollarga erkaklar bilan hamqadam, jamiyatning barcha jabhalarida harakatlanish imkonini berdi hamda jamiyatning teng huquqli a‘zosi maqomiga erishishlariga muvassar etdi.

5. Urush tufayli jamiyatda ayollarning ijtimoiy, madaniy va siyosiy mavqeining ko‘tarilishi, jang maydonlarida ayollarga yuklangan turli majburiyatlarning bajarilishi, ayollarning tinchlikni targ‘ib qiluvchi harakatlarga rahnamoligi hamda inqilobiy ruhdagi nutqlar bilan namoyishlarda ishtirok etishi, urushning ayollarga bevosita va bilvosita aks ta‘siri kabi umumiy jihatlar urush va ayollar mavzusiga bag‘ishlangan asarlarning badiiy-estetik mohiyatini to‘laroq anglatishga xizmat qilgan.

6. Richard Oldington va Vera Britten ayol obrazlari psixologizmini yaratishda dialog, monolog, portret, maktub, psixologik detal, psixologik tafsilot, psixologik parallelizm singari badiiy vositalardan foydalandilar. Ayol va ona ruhiyatini idrok etish, tahlil qilish natijasi o‘laroq, badiiy asarda aks ettirilgan ayanchli va iztirobli urush manzarasining ayollar ruhiy holatiga ta‘siri ifodasi badiiy psixologik talqinlarning yuksak mahsulidir.

7. Richard Oldingtonning “Qahramonning o‘limi” va Vera Brittenning “Yoshlik vasiyati” romanlari tahlili yozuvchilarning muammoga yondashuv uslubida, xususan, gender munosabatlarni ifodalashda o‘ziga xoslik mavjudligini namoyon etdi. Oldington va Britten ayni zamon va ayni makon voqealarini tanlasalar-da, ayollarga xos hissiyotlarga berilish Britten asarlarida ustunlik qiladi, Oldington esa tasvirga ratsional yondashadi.

8. “Qahramonning o‘limi” romanida asar bosh qahramoni Jorj Uinterbornning achchiq qismati orqali adib hayotidagi avtobiografik ma’lumotlar keltiriladi. Romanda “yo‘qotilgan avlod” va imajizm xususiyatlari mujassamlashib, yozuvchi shaxs, predmet va makonga to‘g‘ridan-to‘g‘ri munosabatda bo‘lish; bayonga hech qanday naf keltirmaydigan so‘zlardan foydalanmaslik; ritmik o‘ziga xoslik – voqealar ketma-ketligini emas, balki ohangdor jumlar ketma-ketligini hosil qilish tarzidagi uch qoidadan iborat yozish strategiyasiga amal qiladi.

9. Vera Brittenning “Yoshlik vasiyati” romanida ayol qahramonlarning ichki va tashqi portreti tasvirida realizm va psixologizm xususiyatlari uzviylashtirilgan. “Qahramonning o‘limi” asarida uch asosiy ayol personajlar – Jorjning onasi Izabel, uning rafiqasi Elizabet va ma’shuqasi Fenni shartli ravishda “ayollar uchligi” deb ataldi. Obrazlar uchburchagi markazidagi Jorj Uinterborn ular ta’sirida harakatlanadi. “Ayollar uchligi” – harakatlantiruvchi obrazlar va Jorjning o‘zi – ta’sir ostida harakatlanuvchi personaj degan xulosaga kelish mumkin.

10. Richard Oldington va Vera Britten asarlarida yozuvchi uslubi va badiiy mahorat masalalari bo‘yicha olib borilgan izlanishlar har ikki ijodkorning nazmiy va nasriy asarlarida “Yo‘qotilgan avlod” adabiyoti xususiyatlari yetakchilik qilishini ko‘rsatadi; mazkur ijodkorlarning o‘zlari yashagan davr ijodkorlaridan originalligi va novatorligi bilan ajralib turishini, asarlari badiyatining o‘ziga xosligini namoyon etadi.

11. Angliya-Amerika avangard shoirlarini birlashtirgan jangovar hayqiriq sifatida yuzaga kelgan imajizm adabiy oqimi Richard Oldington va Vera Britten she’riyatiga ham jiddiy ta’sir ko‘ratdi. Oldington o‘z she’rlarida majoziy tasvirlarni ifodalaydigan metaforalardan unumli foydalangan. Vera Britten va Richard Oldington she’riyatining mavzulari o‘ta shaxsiy tajribalar bilan to‘yingan.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.03/30.12.2019.Fil/Ped.27.01
ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ УЗБЕКСКОМ
ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ МИРОВЫХ ЯЗЫКОВ**

**УЗБЕКСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ МИРОВЫХ
ЯЗЫКОВ**

ЧОРИЕВА ШАХНОЗА ШУХРАТОВНА

**ХУДОЖЕСТВЕННОЕ СВОЕОБРАЗИЕ ЖЕНСКИХ ОБРАЗОВ В
АНГЛИЙСКОЙ ЛИТЕРАТУРЕ «ПОТЕРЯННОГО ПОКОЛЕНИЯ»
(НА МАТЕРИАЛЕ ПРОИЗВЕДЕНИЙ РИЧАРДА ОЛДИНГТОНА И
ВЕРЫ БРИТТЕН)**

10.00.04 – Язык и литература народов Европы, Америки и Австралии

АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора философии (PhD) по филологическим наукам

ТАШКЕНТ – 2023

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за B2022.1.PhD/Fil2220.

Диссертация выполнена в Узбекском государственном университете мировых языков.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета (www.uzswlu.uz) и на информационно-образовательном портале «ZiyoNet» по адресу (www.ziyo.net.uz).

Научный руководитель:

Муратова Эльмира Денисовна

кандидат филологических наук, доцент

Официальные оппоненты:

Садиков Зоҳид Яқубжанович

доктор филологических наук (DSc), доцент

Ниязов Равшан Туракулович

доктора философии (PhD) по филологическим наукам, доцент

Ведущая организация:

Бухарский государственный университет

Защита диссертации состоится «15» сентября 2023 года в 13⁰⁰ часов на заседании Научного совета DSc.03/30.12.2019.Fil/Ped.27.01 по присуждению ученых степеней при Узбекском государственном университете мировых языков (Адрес: 100138, город Ташкент, Учтепинский район, улица Кичик халка йули, дом 21А. Тел.: (+99871) 230-12-91; факс: (+99871) 230-12-92; e-mail: uzswlu_info@mail.ru)

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Узбекского государственного университета мировых языков (зарегистрировано за № 23). (Адрес: 100138, город Ташкент, Учтепинский район, улица Кичик халка йули, дом 21А. Тел.: (+99871) 230-12-91; факс: (+99871) 230-12-92.)

Автореферат диссертации разослан «31» августа 2023 года.

(Реестр протокола рассылки № 23 от «31» августа 2023 года).



Г. Х. Бакиева

Председатель Научного совета по присуждению ученых степеней, доктор филологических наук, профессор

Х.Б. Самигова

Ученый секретарь Научного совета по присуждению ученых степеней, доктор филологических наук, доцент

Ж. А. Якубов

Председатель Научного семинара при Научном совете по присуждению ученых степеней, доктор филологических наук, профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. Тема войны отражена в произведениях авторов литературного направления «потерянное поколение», появившегося в литературе Западной Европы (Америки) в 20-е годы XX века; ведутся научные исследования по интерпретации социальных, политических, идеологических и духовных идей. Имеет важное значение осуществление категоризации писателей этого направления, появившихся после Первой мировой войны, по тому, участвовали они в войне или нет, изучение наряду с глубоким наблюдением сложностей военного периода, отраженных в их произведениях, описание тонких моментов изменений в психике героя, особенно женского образа, в контексте «война и женщина». К числу актуальных задач современного литературоведения относятся анализ таких присущих произведениям представителей «потерянного поколения» аспектов, как архитектоника произведений, резкое развитие и закрытое разрешение описанных в них событий, мастерство авторов по созданию образа, выдвинутые в произведениях художественно-философские идеи, а также анализ произведений эпического типа, изображающих горькую судьбу, стойкость и выносливость женщин того опасного времени. Научно-теоретические взгляды в литературоведении на исследование гендерных отношений, отношение к ним и исследование художественного выражения исторического процесса требуют своеобразного подхода.

В мировом литературоведении на основе принципов литературы «потерянного поколения» изучаются такие вопросы, как изменение статуса женщин в обществе, вызванное войной, обязанности, которые женщины должны выполнять на полях сражений, лидерство женщин в движениях по пропаганде мира, участие в демонстрациях с революционными речами, а также прямое и косвенное негативное влияние войны на жизнь женщин. Специфика романистского мышления и метода, изображение событий в разных местах и временах, сюжетная и композиционная целостность; исследование таких проблем, как триада “женщина - общество – действительность”, в свою очередь, вызывают необходимость в информировании мирового научного сообщества о творчестве представителей литературы «потерянного поколения» – Ричарда Олдингтона и Веры Бриттен.

В узбекском литературоведении можно наблюдать подходы, основанные на нескольких различных методах определения критериев анализе художественных произведений, исследования при освещении поэтического творчества их авторов. В частности, при создании художественного образа решительной и страстной женщины существует необходимость всестороннего исследования таких вопросов, как творческая индивидуальность, литературное влияние, сравнительная типология, универсальность и уникальность образцов мировой литературы и художественных произведений на узбекском языке.

По утверждению Президента нашей страны: «Не будет преувеличением сказать, что обладающие современными знаниями, талантом, лидерскими качествами, самоотверженные женщины – это золотой фонд нашего народа ... Мы хорошо понимаем, что в обществе, где обеспечены права и интересы женщин, обязательно будут царить мир, справедливость и благополучие. Если счастлива женщина – счастливы семья и общество»¹. В художественной литературе образ женщины воплощается как символ святости, гордости, красоты. Исследование микрохронотопа женщин, осознающих свои социальные права и уважающих свое достоинство, как мы видим на примере творчества представительниц «потерянного поколения», определяется актуальность темы.

Данное диссертационное исследование, в определенной степени, служит обеспечению выполнения задач, намеченных в Указах Президента Республики Узбекистан от 7 февраля 2017 года № УП-4947 «О Стратегии действий по дальнейшему развитию Республики Узбекистан», от 8 октября 2019 года № УП-5847 «Об утверждении концепции развития системы высшего образования в Республике Узбекистан до 2030 года», постановлении Президента Республики Узбекистан от 17 февраля 2017 года № ПП-2789 «О мерах по дальнейшему совершенствованию деятельности Академии наук, организации, управления и финансирования научно-исследовательской деятельности», постановлении Кабинета Министров Республики Узбекистан от 18 мая 2018 года № 376 «О переводе на узбекский язык наилучших образцов мировой литературы, а также на иностранные языки лучших произведений узбекской литературы и мерах по дальнейшему совершенствованию системы издания», а также в других нормативно-правовых документах Республики Узбекистан, касающихся данной сферы деятельности.

Соответствие исследований приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Данная диссертация выполнена в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий республики I. «Формирование системы инновационных идей в социальном, правовом, экономическом, культурном, духовно-просветительском развитии информационного общества и демократического государства и пути их реализации».

